ELEKTRON TIJORAT PLATFORMALARIDA TUZILADIGAN SHARTNOMALARNING TURLARI

Allambergenova Zamira Rasbergen qızı – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro biznes huquqi" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron tijorat tizimining jadal rivojlanishi natijasida shakllanayotgan elektron shartnomalar instituti kompleks tahlil qilinadi. Xususan, click-wrap, browse-wrap, klassik elektron shartnomalar (e-contracts), smart kontraktlar hamda platforma ichki shartnomalarining huquqiy tabiati, tuzilish mexanizmlari va amaliy qo'llanish xususiyatlari yoritiladi. Maqolada elektron shartnomalarning an'anaviy shartnoma huquqi tamoyillari — oferta va aksept asosida shakllanishi, foydalanuvchi roziligini aniqlash muammolari, shaffoflik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari atroflicha tahlil etilgan. Shuningdek, xalqaro huquqiy tajriba, jumladan UNCITRAL model qonunlari, Yevropa Ittifoqining eIDAS reglamenti hamda AQSh sud amaliyoti misolida elektron shartnomalarning amal qilish mezonlari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi misolida mavjud normativ-huquqiy baza baholanib, uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi. Tadqiqot natijasida elektron shartnomalar sohasida huquqiy aniqlikni ta'minlash, foydalanuvchi roziligini mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalarni inobatga olgan holda milliy qonunchilikni rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, elektron shartnoma, click-wrap, browse-wrap, smart kontrakt, elektron imzo, oferta va aksept, iste'molchilar huquqlari, platforma shartnomalari, transchegaraviy shartnomalar.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron tijorat global savdo tizimining ajralmas qismiga aylandi. Internet texnologiyalarining keng joriy etilishi shartnomaviy munosabatlarning ham tubdan transformatsiyasiga olib kelib, an'anaviy qog'oz shaklidagi shartnomalar o'rnini elektron shakldagi bitimlar

egallamoqda. Ayniqsa, elektron tijorat platformalarining kengayishi bilan millionlab foydalanuvchilar o‘rtasida avtomatlashtirilgan va standartlashtirilgan shartnomaviy munosabatlar yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda click-wrap, browse-wrap, smart kontraktlar kabi yangi shartnoma shakllari nafaqat texnologik, balki huquqiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular orqali shartnoma tuzish jarayoni tezlashib, inson omili qisqarmoqda, biroq ayni paytda foydalanuvchilarning huquqiy himoyasi, rozilikning haqiqiyligi va shaffoflik masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli elektron shartnomalarni huquqiy tartibga solish, ularning amal qilish mexanizmlarini aniqlash hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish zamonaviy huquqshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat va elektron shartnomalar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi [1], O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun [2], O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun [3], O‘zbekiston Respublikasi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonun [4]. Mazkur qonunchilikka ko‘ra, elektron shakldagi bitimlar yozma shakldagi shartnomalarga tenglashtiriladi, agar ularni tuzishda taraflarning roziligi ishonchli tarzda aniqlangan bo‘lsa. Elektron hujjatlar va elektron imzo huquqiy kuchga ega bo‘lib, ular shaxsni identifikatsiya qilish va hujjat yaxlitligini ta’minlash vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilikda click-wrap yoki browse-wrap kabi zamonaviy shartnoma shakllari to‘g‘ridan-to‘g‘ri alohida tartibga solinmagan. Ular umumiy shartnoma huquqi normalari — oferta va aksept qoidalari asosida baholanadi. Bu esa ayrim huquqiy noaniqliklarni yuzaga keltiradi, xususan:

- foydalanuvchi roziligining haqiqiyligini aniqlash
- shartnoma shartlari bilan tanishish darajasi
- platforma tomonidan bir tomonlama o‘zgartirishlar

Elektron tijorat platformalarida tuziladigan shartnomalar o‘zining shakli, tuzilishi va bajarilish mexanizmi bilan an’anaviy shartnomalardan farq qiladi. Ayniqsa, elektron shakl, avtomatlashtirilgan jarayonlar va xalqaro xarakter ularning muhim jihatlaridan hisoblanadi [5].

Elektron tijorat platformalarida eng ko‘p tuziladigan shartnomalardan biri click-wrap shartnomalar hisoblanadi. Click-wrap shartnomalar elektron tijorat platformalarida shakllanayotgan zamonaviy shartnomaviy munosabatlarning eng muhim va keng tarqalgan ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ular foydalanuvchining aniq va faol harakati — ya’ni maxsus belgilangan “I agree”, “Accept”, “Roziman” kabi tugmalarni bosishi orqali tuziladi va shu jihati bilan an’anaviy yozma yoki og‘zaki shartnomalardan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu turdagi shartnomalarning asosiy mohiyati shundan iboratki, ular raqamli muhitda taraflar o‘rtasida tezkor va standartlashtirilgan huquqiy aloqani o‘rnatadi hamda platformalar faoliyatining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi. Elektron tijorat hajmining keskin oshishi, ayniqsa global platformalar faoliyatining kengayishi natijasida click-wrap shartnomalar amaliyotda deyarli universal mexanizmga aylangan [5].

Click-wrap shartnomalarning huquqiy asosini klassik fuqarolik-huquqiy nazariyadagi oferta va aksept instituti tashkil etadi. Platforma tomonidan foydalanuvchiga taqdim etilgan foydalanish shartlari (Terms of service yoki user agreement) oferta sifatida qaraladi, foydalanuvchining mazkur shartlarni qabul qilishi esa aksept sifatida baholanadi. Bu jarayonning muhim jihati shundaki, foydalanuvchi roziligi aniq, ongli va texnik jihatdan qayd etiladigan shaklda ifodalanadi. Shu sababli, click-wrap shartnomalar aksariyat rivojlangan huquqiy tizimlarda yozma shartnomalarga tenglashtiriladi. Xususan, UNCITRAL tomonidan qabul qilingan “Elektron tijorat to‘g‘risidagi model qonun”da elektron shakldagi bitimlar, agar taraflarning roziligi ishonchli tarzda aniqlansa, huquqiy kuchga ega ekanligi alohida ta’kidlangan [6]. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining “eIDAS Regulation reglamenti” (Regulation (EU) No 910/2014 on electronic identification and trust

services for electronic transactions in the internal market) ham elektron identifikatsiya va elektron imzo vositalari orqali berilgan rozilikni qonuniy asosda tan oladi [7].

Sud amaliyoti ham click-wrap shartnomalarning huquqiy kuchini tasdiqlab kelmoqda. Xususan, AQSh sud tizimida muhim precedentsial ahamiyatga ega bo‘lgan Specht v. Netscape Communications Corp. ishida sud foydalanuvchining shartlarga roziligi aniq ifodalangan bo‘lishi kerakligini ta’kidlab, aynan click-wrap shaklidagi shartnomalarni haqiqiy deb tan olgan. Ushbu qaror elektron shartnomalar tizimida muhim burilish nuqtasi bo‘lib, keyingi sud amaliyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan [8]. Keyingi yillarda boshqa ko‘plab sud qarorlari ham aynan foydalanuvchining faol roziligi mavjud bo‘lgan holatlarda shartnomalarni haqiqiy deb e’tirof etgan.

Elektron shartnomalarning ikkinchi turi browse-wrap shartnomalardur. Browse-wrap shartnomalar elektron tijorat platformalarida yuzaga keladigan eng murakkab va bahsli shartnomaviy konstruktsiyalardan biri hisoblanadi. Ularning mohiyati shundan iboratki, foydalanuvchi sayt yoki platformadan foydalanishni davom ettirishi orqali, hatto bu haqda aniq xabardor bo‘lmagan taqdirda ham, shartnoma shartlarini qabul qilgan deb e’tirof etiladi. Bunday yondashuv klassik shartnoma huquqidagi “rozilik” tushunchasining transformatsiyasini aks ettiradi, chunki an’anaviy modelda taraflarning aniq va ongli ravishda kelishuvga erishishi talab etiladi. Browse-wrap modelida esa rozilik ko‘proq taxminiy (implied consent) xarakterga ega bo‘lib, bu uning huquqiy barqarorligini zaiflashtiradi. Shu sababli, zamonaviy huquqshunoslikda ushbu turdagi shartnomalar ko‘pincha tanqidiy yondashuv obyekti sifatida qaraladi [9].

Mazkur shartnomalarning amaliy qo‘llanishi asosan veb-sayt interfeysi dizayni bilan bevosita bog‘liq. Ko‘p hollarda shartnoma shartlari sahifaning pastki qismida kichik shrift bilan joylashtiriladi yoki alohida havola orqali beriladi, bu esa foydalanuvchining ularga e’tibor qaratish ehtimolini keskin kamaytiradi. Natijada, foydalanuvchi real ravishda shartnoma mazmunidan bexabar holda platformadan foydalanishda davom etadi. Bu esa “xabardor rozilik” (informed consent) prinsipining buzilishiga olib keladi. Ilmiy adabiyotlarda bu holat “notice problem”,

ya’ni foydalanuvchini yetarli darajada ogohlantirish muammosi sifatida keng muhokama qilinadi. Xususan, Nancy S. Kim o‘z tadqiqotlarida browse-wrap shartnomalar foydalanuvchini real tanlov imkoniyatidan mahrum qilishini va shu sababli ularni to‘liq huquqiy shartnoma sifatida baholash murakkab ekanligini ta’kidlaydi [10].

Sud amaliyoti browse-wrap shartnomalarning huquqiy maqomini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi va aksariyat hollarda sudlar foydalanuvchining haqiqiy xabardorligi mavjud bo‘lmagan taqdirda bunday shartnomalarni kuchga ega emas deb topadi. Masalan, Nguyen v. Barnes & Noble Inc. ishida sud shunday xulosaga kelganki, agar shartnoma shartlari foydalanuvchi uchun yetarlicha ko‘rinadigan va tushunarli tarzda taqdim etilmagan bo‘lsa, foydalanuvchini ularga rioya qilishga majbur qilib bo‘lmaydi [11]. Ushbu yondashuv keyingi sud qarorlarida ham qo‘llanilib, browse-wrap shartnomalarga nisbatan qat’iy standartlarning shakllanishiga olib keldi. Shu bilan birga, Specht v. Netscape Communications Corp. ishida ham sud foydalanuvchining shartlarni ko‘rish va anglash imkoniyati bo‘lmagan holatda shartnoma haqiqiy emasligini ta’kidlagan [8].

Browse-wrap shartnomalarning yana bir muhim jihati — ularning iqtisodiy samaradorlik va huquqiy adolat o‘rtasidagi ziddiyatni namoyon etishidir. Platformalar nuqtai nazaridan bunday shartnomalar juda qulay, chunki ular foydalanuvchi bilan tezkor va minimal harakatlar orqali huquqiy aloqani o‘rnatish imkonini beradi. Biroq foydalanuvchilar nuqtai nazaridan bu model ko‘pincha noqulay va hatto adolatsiz bo‘lishi mumkin, chunki ular shartnoma shartlarini bilmagan holda majburiyatlarga tortiladi. Shu sababli zamonaviy elektron tijorat amaliyotida sof browse-wrap modelidan asta-sekin voz kechilib, uning o‘rniga foydalanuvchining kamida minimal darajadagi faol ishtirokini talab qiluvchi modellar joriy etilmoqda. Masalan, “sign-in wrap” yoki “hybrid wrap” shakllari foydalanuvchidan ro‘yxatdan o‘tish yoki tizimga kirish jarayonida shartlarga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar ham browse-wrap shartnomalarning kamchiliklarini hisobga olib, foydalanuvchilarni himoya qilishga qaratilgan

standartlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, OECD tomonidan qabul qilingan elektron tijoratda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatmalarda shartnoma shartlari foydalanuvchiga aniq, tushunarli va oson kirish mumkin bo'lgan shaklda taqdim etilishi zarurligi alohida qayd etilgan [12]. Bu talab browse-wrap shartnomalarning an'anaviy ko'rinishini sezilarli darajada o'zgartirishga olib kelmoqda, chunki endilikda oddiy havola berish yetarli emas, balki foydalanuvchini real ravishda xabardor qilish talab etiladi.

Elektron savdo shartnomalari bo'lsa (klassik e-contracts) elektron tijorat huquqining eng fundamental institutlaridan biri bo'lib, ular an'anaviy fuqarolik-huquqiy shartnomalarning raqamli muhitga moslashtirilgan shakli hisoblanadi. Ushbu turdagi shartnomalar mohiyatan klassik shartnoma tuzish prinsiplari — oferta va akseptga asoslanadi, biroq ularning amalga oshirilish shakli to'liq elektron axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bajariladi. Ya'ni, taraflar o'rtasidagi kelishuv qog'oz hujjat emas, balki elektron platformalar, e-mail, elektron hujjat aylanish tizimlari yoki maxsus savdo platformalari orqali shakllanadi. Bu esa shartnoma tuzish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi va transchegaraviy savdoni soddalashtiradi [13].

Klassik elektron savdo shartnomalarining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, oferta va aksept jarayoni to'liq raqamli muhitda amalga oshiriladi. Masalan, sotuvchi elektron platformada mahsulot yoki xizmatni taklif qiladi (oferta), xaridor esa uni qabul qilish orqali shartnomani tuzadi (aksept). Bu jarayon ko'pincha avtomatlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshiriladi va inson aralashuvi minimal darajaga tushiriladi. UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan elektron tijorat bo'yicha model qonunlarda ham elektron oferta va aksept an'anaviy shakllar bilan teng huquqiy kuchga ega ekanligi belgilangan [6]. Bu esa elektron shartnomalarning huquqiy barqarorligini ta'minlaydi va ularni xalqaro savdo munosabatlarida keng qo'llash imkonini yaratadi.

Elektron savdo shartnomalarining yana bir muhim jihati — elektron hujjatlardan foydalanilishidir. Bunday hujjatlar PDF, XML yoki boshqa raqamli

formatlarda bo‘lishi mumkin va ular an’anaviy qog‘oz hujjatlarning o‘rnini bosadi. Elektron hujjatlar nafaqat tezkor almashuvni ta’minlaydi, balki ularni saqlash, qayta ishlash va tekshirish jarayonlarini ham osonlashtiradi. Shu bilan birga, elektron hujjatlarning huquqiy kuchi ko‘plab xalqaro hujjatlar bilan mustahkamlangan bo‘lib, eIDAS Regulation doirasida elektron hujjatlar va elektron imzo yozma shaklga tenglashtirilgan [7].

Amaliyotda klassik elektron savdo shartnomalari yirik elektron tijorat platformalarida, B2B (business-to-business) va B2C (business-to-consumer) segmentlarida keng qo‘llaniladi. Masalan, korxonalar o‘rtasidagi ulgurji savdo shartnomalari yoki onlayn xizmat ko‘rsatish shartnomalari aynan elektron hujjatlar va elektron imzo asosida tuziladi. Alibaba Group kabi global platformalar ushbu modeldan keng foydalanib, turli davlatlardagi biznes subyektlarini yagona raqamli shartnoma tizimiga birlashtiradi [14].

Smart kontraktlar zamonaviy raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat tizimlarida eng innovatsion huquqiy-texnologik institutlardan biri bo‘lib, ular blokcheyn texnologiyasi asosida ishlaydigan, oldindan dasturlashtirilgan shartlar bajarilganda avtomatik ravishda ijro etiladigan shartnomalardir. An’anaviy shartnomalardan farqli ravishda, smart kontraktlarda inson omili minimal darajaga tushiriladi, ya’ni shartnoma shartlari kod (program code) ko‘rinishida yoziladi va tizim tomonidan avtomatik ijro etiladi. Shu sababli ularni ko‘pincha “o‘zini-o‘zi bajaruvchi shartnomalar” (self-executing contracts) deb ham atashadi [15].

Smart kontraktlarning ishlash mexanizmi “agar… unda…” (if–then) mantiqiy tamoyiliga asoslanadi. Masalan, agar xaridor to‘lovni amalga oshirsa, unda tizim avtomatik ravishda tovarni yetkazib berish jarayonini ishga tushiradi. Bu jarayonda vositachilar (banklar, notariuslar yoki platforma operatorlari) ishtirok etmaydi, chunki shartnoma ijrosi to‘liq algoritmlar orqali boshqariladi. Shu sababli smart kontraktlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va jarayon tezligini sezilarli darajada oshiradi [16].

Huquqiy nuqtai nazardan smart kontraktlar an’anaviy shartnoma tushunchasini qayta talqin qiladi. Chunki klassik huquqda shartnoma taraflarning iroda ifodasi natijasida tuziladi va uning ijrosi ko‘pincha inson yoki huquqiy institutlar tomonidan nazorat qilinadi. Smart kontraktlarda esa shartnoma kodi o‘zi ijro mexanizmi sifatida ishlaydi. Shu sababli ayrim huquqshunoslar smart kontraktlarni “huquq va texnologiya kesishmasidagi gibrid institut” sifatida baholashadi. Nick Szabo ushbu konsepsiyani birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan bo‘lib, u smart kontraktlarni raqamli protokollar orqali amalga oshiriladigan avtomatik kelishuvlar sifatida tavsiflagan [15].

Transchegaraviy elektron shartnomalar elektron tijoratning eng murakkab va shu bilan birga eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi shartnomalar turli davlatlarda joylashgan subyektlar — sotuvchi, xaridor yoki platforma operatorlari o‘rtasida internet orqali tuziladigan huquqiy kelishuvlarni anglatadi. Bunday shartnomalarda asosiy xususiyat shundan iboratki, taraflar turli huquqiy tizimlarga (legal systems) bo‘ysunadi va shartnoma ijrosi ham, yuzaga keladigan nizolar ham bir nechta davlat yurisdiksiyasiga taalluqli bo‘lishi mumkin [17].

Transchegaraviy elektron shartnomalarning rivojlanishi global elektron tijorat platformalarining kengayishi bilan bevosita bog‘liq. Bugungi kunda Amazon, Alibaba Group va boshqa yirik platformalar orqali bir davlatda joylashgan sotuvchi boshqa davlatdagi xaridorga mahsulot yoki xizmatni juda qisqa vaqt ichida yetkazib bermoqda. Bu jarayon shartnomaviy munosabatlarni “milliy chegaralardan tashqariga chiqargan” holda, global raqamli bozorni shakllantirdi.

Biroq transchegaraviy elektron shartnomalarning asosiy huquqiy muammosi — yurisdiksiya (jurisdiction) masalasidir. Ya’ni, nizolar yuzaga kelganda qaysi davlat sudi yoki arbitraj organi ishni ko‘rib chiqishi kerakligi aniqlanishi lozim bo‘ladi. Amaliyotda ko‘plab platformalar shartnomalarga maxsus “jurisdiction clause” kiritadi, unda nizolar ma’lum bir davlat sudida yoki arbitraj markazida ko‘rib

chiqilishi belgilab qo‘yiladi. Bu platformalar uchun huquqiy aniqlik yaratadi, biroq foydalanuvchilar uchun ba’zan noqulaylik tug‘diradi [18].

Ikkinchi muhim masala — qo‘llaniladigan huquq (applicable law) hisoblanadi. Turli davlatlarning fuqarolik huquqi normalari bir-biridan sezilarli farq qiladi, ayniqsa elektron shartnomalar, iste’molchilar huquqlari va elektron imzo masalalarida. Shu sababli transchegaraviy shartnomalarda “choice of law” bandi kiritilib, qaysi davlat huquqi qo‘llanilishi oldindan belgilanadi. UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan model qonunlar aynan ushbu muammolarni standartlashtirishga qaratilgan bo‘lib, xalqaro elektron savdoda huquqiy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi [6].

Uchinchi asosiy muammo — nizolarni hal qilish tartibi (dispute resolution mechanism) hisoblanadi. Transchegaraviy elektron shartnomalarda sud jarayonlari ko‘pincha murakkab, qimmat va uzoq davom etishi mumkinligi sababli, taraflar odatda muqobil nizolarni hal qilish usullariga murojaat qiladi. Bular qatoriga arbitraj va onlayn nizolarni hal qilish tizimlari (ODR – Online Dispute Resolution) kiradi. Masalan, European Union tomonidan ishlab chiqilgan ODR platformasi iste’molchilar va savdogarlar o‘rtasidagi nizolarni onlayn tarzda tezkor hal qilish imkonini beradi [19].

Xalqaro amaliyotda elektron shartnomalar keng va batafsil tartibga solingan. Xususan, BMTning xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasi — UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan Model qonun elektron bitimlarning huquqiy kuchini mustahkamlaydi [6].

Yevropa Ittifoqining eIDAS Regulation elektron identifikatsiya va elektron imzoni aniq tartibga solidi [7].

AQSh sud amaliyotida Specht v. Netscape Communications Corp. va Nguyen v. Barnes & Noble Inc. kabi ishlar orqali elektron shartnomalarning amal qilish mezonlari ishlab chiqilgan [8, 11].

Ushbu tajribalar asosida O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1.Click-wrap va browse-wrap shartnomalarni alohida huquqiy institut sifatida belgilash: ularning amal qilish shartlari va haqiqiylik mezonlarini aniq ko‘rsatish.

2.Foydalanuvchi roziligini mustahkamlash mexanizmlarini joriy etish: majburiy “aniq rozilik” (explicit consent) standartini qonunchilikka kiritish.

3.Smart kontraktlarni huquqiy tan olish: blokcheyn asosidagi shartnomalar uchun alohida normativ baza yaratish.

4.Iste’molchilar huquqlarini kuchaytirish: nohaq shartlarni haqiqiy emas deb topish mexanizmini joriy etish, shartnoma shartlarini soddalashtirilgan shaklda taqdim etishni majburiy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 21.12.1995 https://lex.uz/docs/111189

2. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni. 29.04.2004 (yangi tahriri – 22.05.2015). https://lex.uz/docs/2620461

3. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonuni. 29.04.2004. https://lex.uz/docs/61150

4. O‘zbekiston Respublikasi “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonuni. 11.12.2003. https://lex.uz/docs/58367

1. Laudon K.C., Traver C.G. *E-commerce: Business, Technology, Society*. Pearson, 2022.

2. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce, 1996.**URL:** https://uncitral.un.org **Murojaat sanasi:** 12.04.2026

3. eIDAS Regulation (EU) No 910/2014. **URL:** https://eur-lex.europa.eu **Murojaat sanasi:** 12.04.2026

4. Specht v. Netscape Communications Corp., 306 F.3d 17 (2002). **URL:** https://law.justia.com **Murojaat sanasi:** 12.04.2026

5. Todd P. *E-commerce Law*. Routledge, 2016.

6. Kim N.S. *Wrap Contracts: Foundations and Ramifications*. Oxford University Press, 2013.

7. Nguyen v. Barnes & Noble Inc., 763 F.3d 1171 (9th Cir. 2014). https://law.justia.com

8. OECD Guidelines for Consumer Protection in E-commerce, 2016. **URL:** https://www.oecd.org **Murojaat sanasi:** 12.04.2026

9. Laudon K.C., Traver C.G. *E-commerce: Business, Technology, Society*. Pearson, 2022.

10. Turban E. et al. *Electronic Commerce*. Springer, 2020

11. Szabo N. "Smart Contracts", 1997.**URL:** https://www.fon.hum.uva.nl **Murojaat sanasi:** 12.04.2026

12. Tapscott D., Tapscott A. *Blockchain Revolution*. Penguin, 2016.

13. United Nations. *UNCTAD Digital Economy Report 2021*.**URL:** https://unctad.org **Murojaat sanasi:** 12.04.2026

14. Van Hoecke M. *Cross-border E-commerce Law*. Springer, 2021.

15. European Commission. *Online Dispute Resolution Platform (ODR)*, 2020–2024.**URL:** https://ec.europa.eu/odr **Murojaat sanasi:** 12.04.2026